



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 29 - sentabr

151-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatiga doir ayrim qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 573-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 6-apreldagi PQ-5055-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatiga doir ayrim qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 573-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

- a) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi;
- b) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi;
- v) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi;
- g) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ishlatish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi;
- d) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi;
- e) Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligining tarkibiga kiruvchi suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirishda buyurtmachi vazifasini bajaruvchi

“Suvqurilishinvest” davlat muassasalari ro‘yxati;

z) “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a‘lochisi” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi nizom, ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi tavsiflari inobatga olinsin

3. “Amu-Surxon” irrigasiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘limlarining ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Surxondaryo viloyati hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish borasida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 10-apreldagi 199-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida” 2021-yil 14-apreldagi Q-289-son qarorining 8-band uchinchi xatboshisidagi “Surxonqurilishinvest” davlat unitar korxonalari so‘zlari “Surxonqurilishinvest” davlat muassasalari so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Surxondaryo viloyati hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash haqida” 2018-yil 10-iyuldagi Q-575-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari U.Turapov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 29 сентябрдаги
151-8-0-Q/21-сон қарорига
1-илова

**“Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza
boshqarmasi va uning bo‘limlarining ro‘yxati**

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot soni	Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni
“Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari			
1.	“Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	“Surxondaryo” magistral tizimi boshqarmasi	1	10
	“Amu-zang” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	11
	“Surxon-Sherobod” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	9
	“To‘palang-Qoratog‘” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	11
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	14	76
	“Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	9
	“Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	7
	Jami:	21	152